

Farg'ona Davlat Universiteti psixologiya fanlari doktori (DSs) G'ofurov Azizbek Umarjonovich taqrizi ostida

**Maziyayeva Muqaddasxon Esonovna**  
Mustaqil izlanuvchi  
E-mail: muqaddasxonmaziyayeva@gmail.com  
ORCID ID 0009-0003-2723-4704  
<tel:99890-5311085>

---

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBİYALANUVCHILARNI BILISH  
JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING AHAMIYATI**

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini bilish jarayonlarini neyrotarmoq texnologiyasi asosida rivojlantirishning amaliy-pedagogik jihatlari atroflicha yoritilgan. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini bilish jarayonlarini rivojlantirish bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarda harakat ko'nikmalarini hosil qilishga alohida e'tibor qaratilishi nazarda tutulgan. Ta'lim-tarbiya berish jarayonida ta'lim oluvchi shaxsini har tomonlama va chuqur bilish va neyrologik imkoniyatlarini hisobga olish masalalariga alohida to'xtalgan. Neyropedagogik diagnostika – insondagi juft a'zolar ya'ni qo'l, oyoq, quloq va ko'zni yetakchilik ko'rsatkichlariga qarab ta'lim berishning funksional tiplarini aniqlashni imkoniyatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** bilim maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarbiyalanuvchi, pedagog, neyrotarmoq, bilish jarayoni, ta'lim muhiti, rivojlanish, texnologiya.

#### **KIRISH**

**Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm,**

**eng katta meros- bu yaxshi tarbiya,**

**eng katta qashshoqlik- bu bilimsizlikdir.**

**Sh. Mirziyoyev**

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetkazish yo'llari, qonun-qoidalarini doimiy ravishda izlaganlar. Ularning izlanishlarining bosh masalasi ta'lim va tarbiya bo'lgan. Bundan uch ming yillar ilgari Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgani holda uning ibodatxonalari qoshida maktablar tashkil etilib, koinlar tomonidan bolalarning ta'lim-tarbiyalash tizimi ishlab chiqilgan. Bu ta'lim-tarbiya tizimi quyidagi tartibda amalga oshirilgan: diniy va axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, o'qish va yozishga o'rgatish. Bunda ko'rinadiki, ota-bobolarimiz, momo-buvilarimiz azal-azaldan farzand tarbiyasiga va uning kamolotiga e'tibor bilan qaraganlar.

Maktabgacha yosh davri inson kamolotining keying rivojlanishidagi muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadi - tarbiyalanuvchining kompetensiyalarini rivojlanish sohalarini shakllantirish uchun shart- sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Shu maqsaddan kelib chiqib maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya jarayoning tamoyillari tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini tamoyiliga muvofiq biz pedagoglar bolalaikni o'ziga xos qadriyat ekanligini tan olishimiz lozim. Bolalaik – bu muhim ahamiyatga molik yosh va hayotiy davr. Bolalaikning o'ziga xos xususiyati – bu bolalarning ta'lim olish tajribasi natijasida kattalardan ko'ra ko'proq o'rganish,

o'zgarish va bilish qobiliyatiga ega ekanligidir. Bolalik - bu baxtli bolalik huquqi tan olinadigan bola rivojlanishining muhim bosqichi.

Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish biz pedagoglarning bizning muhim vazifamiz. Barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo'lib dunyoga keladi va har bir tug'ma iste'dodga ega. Har bir bola o'ziga xos individualdir. Barcha bolalar o'z salomatligi va farovonligini himoya qilish va mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta'limdan keng foydalanish huquqiga ega. Bolalarning o'z milliy madaniyati, tili, an'analarini hurmat bilan e'tirof etilganda ular yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar.

Maktabgacha ta'lim jadal rivojlanayotgan soha bo'lib, u butun dunyo va mamlakatimizdagi ta'lim sohasi mutaxassislari va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasidagi davlat siyosatining maqsadi har bir tarbiyalanuvchining sifatli va bepul ta'lim olish huquqini amalga oshirishdir. O'zbekistonda maktabgacha ta'limning zamonaviy tizim shakllarining variativligi, jamiyat va shaxsning ehtiyojlariga moslashuvchan munosabat, tarbiyalanuvchilar uchun maktabgacha ta'limning yangi texnologiyalarining paydo bo'lishi ya'ni nevroset texnologiya asosida tavsiflanadi.

### **MATERIALLAR VA USLUBLAR**

Bugungi kunga kelib, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari uchun maktabgacha ta'limning butun tizimini qayta qurish, nafaqat tarbiyalanuvchi bilan, balki maktabgacha ta'limning barcha sub'ektlari bilan aloqa va o'zaro munosabat usullarini o'zgartirish zarurati yuzaga keldi. Demak, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilar bilan ishlashni tashkil etish usullari va shakllarini potensial imkoniyatini ochib berish maqsadiga mos keladigan innovatsion texnologiyalarni tanlashdir.

Zamonaviy dunyoda bolalar qaysi mamlakatda qaysi shahar yoki tumanda yashashidan qat'iy nazar, tez rivojlanayotgan jahonda qiyin hayot yo'lidan o'tishlari darkor. Bugungi kunda zamon juda tez o'zgaryapti. Yashash va mehnat qilish sharoitlari o'zgarimoqda, ilmiy va texnik ixtirolar natijasida yangi kasblar va yangi texnologiyalar paydo bo'lmoqda. Zamonaviy dunyoda inson doimiy ravishda o'zgarishi, butun hayot davomida yangi narsalarni o'qib o'rganishi o'ta muhimdir. Ertangi kunimiz kelajagi bo'lgan kichkintoylarni ushbu keskin o'zgarishlarga tayyorlash, dunyoda hayot uchun zarur bo'lgan bilim va tajribasini boyitishga o'rgatishni maktabgacha yoshdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Erta ta'lim-tarbiya insonning butun umri davomida farovon va baxtli umr kechirishi uchun mustahkam asos bo'ladi. Shu bilan birga, erta ta'lim-tarbiya tarbiyalanuvchining ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini birlashtirishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari har bir tarbiyalanuvchi uchun maktabgacha ta'lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Kompetensiya – bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlar majmuidir. Kompetentli bola o'z bilim, ko'nikma va malakalarni muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo'llashi o'z maqsadiga erishish va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos vazifalarni hal qilishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv - tarbiyalanuvchilarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish va shaxsini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarni rivojlanishiga yakka tartibda yondashish uni shaxsini hurmat qilish, qiziqishlari va ehtiyojlarini va rivojlanishni hisobga olish, hissiy qulayliklarga g'amho'rlik qilish va o'z fikrini erkin ifoda etish uchun shart-sharoitlar yaratishga intilishni maqsad qilib qo'yadi. Bunda tarbiyalanuvchilar bilan shug'ullanuvchi pedagoglar har bir tarbiyalanuvchining individual xususiyatlari haqida aniq tushunchaga ega bo'lishi lozim.

Bola dunyoga kelgan kundan boshlab ota-ona hamda pedagoglar zimmasiga uni aqliy sog'lom, barkamol, intellektual salohiyatli farzand qilib tarbiyalash vaifasi qo'yiladi. Allomalar aytadilarki, har bir millatning soadati, davlatning tinchi va rohati u tarbiyalagan farzand tarbiyasiga bevosita bog'liqdir<sup>1</sup>.

### **NATIJARLAR VA MUHOKAMALAR**

Bilish murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, so'ngra amaliyotga o'tish yo'lidir. Bilish shaxs uchun mavhum ham o'zlashtirilmagan narsa, voqea va hodisalar mohiyatining ong yordamida anglash jarayonidir. Ob'ektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi. Sezish onging tashqi olam bilan bog'laydigan chinakam aloqasidir.

Bilish jarayonida bilim hosil bo'ladi. Bilim - insonlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to'plagan umumlashtirgan tajribasidir. Bilim ob'ektiv borliqni to'g'ri aks ettiradi. Eng to'g'ri va mukammal bilimlar ham o'z navbatida doimiy emas, balki ijtimoiy tarqqiyot jarayonida o'zgarib boradi. Bilimlar asosida tarbiyalanuvchilarda kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e'tiqod hosil bo'ladi, ilmiy dunyoqarshni shakllantiruvchi g'oyalar tarkib topadi.

Bilish kompetensiyasi esa bilim olish, o'qish va o'rganish, mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilsih va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Harakat va o'zaro munosabatlar orqali tarbiyalanuvchilar bilim olish va o'rganish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular atrof-olamdagi yangi ob'ektlarni o'rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o'yin va o'zaro muloqot jarayonida ular kuzatadilar va tajriba o'tkazadilar. Ular muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. Ular o'zlarining kashfiyotlari bilan o'rtoqlashdilar va asta-sekin mustaqil, o'z-o'zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan ijodkor shaxsga aylanadilar. Tarbiyalanuvchilar muammoni hal qilishga e'tibor qaratishlari, muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari va atrof-dagi dunyoni tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo'yishda kognitiv qobiliyatlarini ishga solishlari mumkin. Tarbiyalanuvchilarni o'rganishga va bilishga bo'lgan qiziqishlarini davom ettirishlari, o'rganishdan zavqlanish va o'rgananlarini barham ko'rishlari, kashfiyotlarini boshqalar bilan bo'lishlari mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan omillarga tayangan holda maktagacha ta'lim tashkilotlatida tarbiyalanuvchilarni bilish jarayonlarini neyrotarmoq texnologiya asosida rivojlantirish orqali ularda innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish unda integrativ va nazariy bilim bazasini, umumiy metadalogiyasini yaratishga neyrotarmoq texnologiyasi asosidaagi imkoniyatlar samarali bo'ladi. Bu texnologiya orqali beriladigan bilimlar, ma'lumotlar tarbiyalanuvchilarda faqatgina eslab qolishlari uchun emas, balki, anglashlari va nisbatan qiyinchiliklarsiz tusunishlari hamda o'zlashtishlari uchun yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarni bilish jarayonlarini neyrotarmoq texnologiya asosida rivojlantirishda individual xususiyatlarini hisobga olish, ta'lim oluvchi ya'ni tarbiyalanuvchilarni shaxsini har tomonlama va chuqur bilish, ularning psixofiziologik xususiyatlari bilan bir qatorda neyrologik imkoniyatlar hamda jihatlarini ham hisobga olish o'ta muhimdir. Bu texnologiya orqali o'zlashtirishda qiynaladigan tarbiyalanuvchilarga pedagoglar tomonidan alohida e'tibor qaratish muhimdir. Chunki barcha tarbiyalanuvchilarni bilish, idrok etish darajasi bir xil emas. Agarda barcha tarbiyalanuvchilar bilan alohida shug'ullanilmasa, ularni bilish jarayonlarini o'z vaqtida o'zlashtirishmaslik shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi.

O'qitishning fiziologik asoslari. Insonda sodir bo'ladigan barcha psixik jarayonlar bosh miya katta yarimsharlaridagi nerv jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda kechadi, zero har bir psixik jarayon nerv jarayonlari - qo'zg'alish, tormozlanish, irradiatsiya, konsentratsiya, dominata kabilar yotadi. Bunday tashqi, psixik jarayonlar nutq asosida hosil bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Sog'lom farzand-oila quvonchi.M.Z.Rejaboyeva Sh. Sh.Shomansurov.Toshkent "O'zbekiston"2015 yil.3-bet.

Tarbiyalanuvchilarga ta'lim berishda ichki tormozlanishning barcha turlarini hosil qilish va mashq qildirish zarur. Solishtirish, qarama-qarshi qo'yish usullarini qo'llanilgandagina ta'lim jarayoni samarali bo'ladi. Ta'lim berishda yoki o'qitishda rangli yaltiroq ko'rgazmali qurollarni ko'rsatish, tarbiyalanuvchilarning hayajonlantiradigan va quvontiradigan darajada ta'sir etish bilan miya po'stolg'ida dominant o'chog'ini shakllantirish orqali o'quv materialini yanada qiziqarli qilish mumkin. Aksincha, bir xil ta'sir bir xil sharoit va bir xil ohangda so'zlash hamda faqatgina o'zidagi juft a'zodan bitta toq a'zoni harakatlantirish tarbiyalanuvchilarni zerikishga mudrashga, ularda o'quv materialiga nisbatan qiziqishni pastlashiga olib kelishi mumkin. Bundan ko'rish mumkin-ki, tarbiyalanuvchilarda 1- va ikkinchi signal sistemalarining shakllanishi va uyg'unligi ta'lim jarayoni sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **NATIJALAR VA MUHOKAMALAR**

Murabbiy va pedagoglardan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ta'lim va tarbiya berish jarayonida ta'lim oluvchi shaxsini har tomonlama va chuqur bilishlari, ularning psixofiziologik xususiyatlari bilan bir qatorda neyrologik imkoniyatlari hamda jihatlari hisobga olishlari talab etiladi.

Tarbiyalanuvchilarning barchasi diqqati va xotirasining hajmi, uni ko'chuvchanligi, ma'lumotlarni qabul qilish va o'zlashtirish tezligi, borliqni tasavvur qilishi va aniqlashi, idrok etishi, "dunyoni qanday ko'rishi" bilan bir-birlari bilan faqrlanadilar. Bu farqlanishning asosiy sababi – bosh miya yarim sharlarining qaysi biri inson hayoti faoliyatida yetakchi ahamiyatga ekanligidadir. Chunki, ta'lim jarayonida bosh miya chap yarim sharlari tarbiyalanuvchilarning bilish jarayonlari hayotiy ta'sir etish va oqibatlarining barcha miqdoriy imkoniyatlari natijasida kelib chiqadigan aql kuchi hamda fikrlashning rivojlanish jarayonini tushunish mumkin. Tarbiyalanuvchilarning bilish jarayonlarini asosini aqliy rivojlanish tashkil etadi. Aqliy rivojlanish atamasi bilan bir qatorda " aqliy kamolot" atamasi ham qo'llaniladi. Aqliy kamolot-bu yoshning o'sib, tajribaning boyib borishi munosabati bilan tarbiyalanuvchining aqliy faoliyatida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarining yig'indisidir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida bilish jarayonlari tez o'sib boyib boradi, nutqi shakllanadi, bilim olishga katta qiziqishi ortadi. Tarbiyalanuvchi eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab oladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini bilsih jarayonlarini, aqliy rivojlanishini ta'minlash ularning kelajakdagi butun faoliyatlari uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Inson kichik yoshadan ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. U bilish jarayonlari orqali bilim olish, o'qish va o'rganish, mustaqil ravishda izlanish, imkon toppish, tahlil qilish va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini oshirib boradi.

Tarbiyalanuvchilar tevarak- atrofdagi kishilar hamda tengdoshlari bilan muloqot qilish orqali tilini u bilan birga tarkib topgan tushunchalar tizimini o'rganib o'zlashtiradi. Natijada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi tilni shunchalik egallab oladiki, undan muomala vositasi sifatida erkin foydalanib, ikkinchi tilni o'rganish layoqatiga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda bilish jarayonlari tushunchasidan keng foydalanilmoqda. Bilish jarayonlari ta'limni asosini hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Bizga ma'lumki, insonning psixik rivojlanishi va kamoloti u yashayotgan ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar hayotining birinchi kunidanoq kattalar va oila a'zaolri ta'siri ostida ijtimoiy-madaniy tajribani o'zlashtira boshlaydi. Bu tajribalarni o'zlashtirish asosida tarbiyalanuvchining bilish jarayonlar rivojlanishi bilan uning insoniy qobiliyatlari shakllanib boradi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, neyrometodning asosiy tamoyili - har bir tarbiyalanuvchining miyasi betakrorligini, ma'lumotlarni qabul qilish hajmi va ishlash tezligi, u yoki xotira tizimining ustunligi va tafakkur jarayonlarining borishi bilan farq qiladi. Shu sababli har bir tarbiyalanuvchining ta'lim olish, atrof-muhitni tushunish va tafakkur qilish jarayoni bir-biridan tubdan farq qiladi. Pedagoglarning asosiy vazifasi – har bir

tarbiyalanuvchidagi shu betakrorlikni sezishi va shu betakrorlik asosida ijobiy natijalar hosil qilishidadir. Neyropedagogika tarbiyalanuvchilar bilish jarayonlarini rivojlantirishni imkoniyatlarini yanada oshiradi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Yangi O‘zbekiston tarqqiyot strategiyasi.Sh. Mirziyoyev “OZBEKISTON” Toshkent-2022.
- 1.Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. 2022.12.12.Toshkent.
- 2.Maktabgacha pedagogika.F.R.Qodirova,SH.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova. Toshkent 2019.
- 3.Shaxs fiziologiyasi va gigenasi. Pol’ Bregg, Patrisiya Bregg.Toshkent-2015.
- 4.Neyropedagogika o‘quv-uslubiy majmua. F.M.Qo‘chqorova. Andijon 2018.
- 5.Neyropedagogika (metodik qo‘llanma) DJ.R.Gulamov, D.A.Mamatqulov, M.T.Axmedova, M.X.Umarova, M.A.Abidjanova.